

# TADQIQOT VA INNOVATSIYALAR JURNALI

ЖУРНАЛ ИССЛЕДОВАНИЯ И ИННОВАЦИИ | JOURNAL OF RESEARCH AND INNOVATIONS

**IBRAGIMOVA Dilbar Atxamovna**

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

*Tillar va maktabgacha ta'lim fakulteti*

*dotsenti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15605178>

## **QADIMGI TURKIY TILNING HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILGA MUNOSABATI: KOSMONIMLAR MISOLIDA**

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada qadimgi turkiy tilning hozirgi o'zbek adabiy tiliga ta'siri kosmonimlar (osmon jismlarining nomlari) misolida tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy tilda shakllangan kosmonimlarning leksik, fonetik va semantik o'zgarishlari hozirgi o'zbek tilida qanday namoyon bo'layotgani tadqiq etiladi.

Maqolada qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlilga tortishda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarining I-jildi tanlab olingan va turkiy xalqlarning osmon jismlariga bergan nomlarining etimologik tahlili yoritiladi. Shuningdek, qadimgi turkiy tilga oid kosmonimlarning hozirgi o'zbek adabiy tili lug'at tarkibidagi o'rni va ularning madaniy-ma'naviy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** qadimgi turkiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili, kosmonimlar, astronomik leksika, etimologiya, O'rxun-Yenisey bitiglari.

## **ATTITUDE OF THE OLD TURKIC LANGUAGE TO THE CURRENT UZBEK LITERARY LANGUAGE: ON THE EXAMPLE OF COSMONYMS**

### **ANNOTATION**

In this article, the influence of the ancient Turkic language on the current Uzbek literary language is analyzed using the example of cosmonyms (names of celestial bodies). It is studied how lexical, phonetic and semantic changes of cosmonyms formed in the old Turkic language are manifested in the current Uzbek language.

The article highlights the selection of volume one of Mahmud Koshgari's "Devonu lexicotit-turk" in its analysis of the peculiarities of the ancient Turkic language and etymological analysis of the names of the Turkic peoples given to the celestial bodies. It is also thought about the place of ancient Turkic cosmonyms in the vocabulary of the current Uzbek literary language and their cultural and spiritual significance.

**Keywords:** old Turkic language, current Uzbek literary language, cosmonyms, astronomical lexicon, etymology, O'rhun-Yenisei Scrolls.

## ОТНОШЕНИЕ ДРЕВНЕТЮРКСКОГО ЯЗЫКА К СОВРЕМЕННОМУ УЗБЕКСКОМУ ЛИТЕРАТУРНОМУ ЯЗЫКУ: НА ПРИМЕРЕ КОСМОНИМОВ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние древнетюркского языка на современный узбекский литературный язык на примере космонимов (названий небесных тел). Исследуется, как лексические, фонетические и семантические изменения космонимов, сформировавшихся в древнетюркском языке, проявляются в современном узбекском языке.

Статья посвящена этимологическому анализу названий, которые тюркские народы дали небесным телам, из которых был выбран том первый работы Махмуда Кошгари “Devonu lugotit-Turk”, при этом анализируются особенности древнетюркского языка. Также рассматривается роль древнетюркских космонимов в лексике современного узбекского литературного языка и их культурно-духовное значение.

**Ключевые слова:** древнетюркский язык, современный узбекский литературный язык, космонимы, астрономическая лексика, этимология, орхоно-ксейские надписи.

Barchamizga ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tili turkiy qatlamning tarixiy taraqqiyotiga bog'liq bo'lib, o'zbek va boshqa turkiy tillarning shakllanishiga ham asos bo'lib xizmat qilgan. O'zbek millati va tili uzoq asrlar tarixiga ega bo'lib, uning shakllanish jarayoni turli davrlardagi siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, o'zbek millati va tilining tarixi haqida gapirganda, biz avvalo uning ildizlariga nazar tashlashimiz lozim. Darhaqiqat, qadimgi turkiy tilning o'zi ham ma'lum taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan, shakllangan, ma'lum bir qolipga tushguniga qadar birmuncha davrni bosib o'tgan.

Qadimgi turkiy til davri turkiy xalqlar tili, tarixiy ildizlarini bilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida hozirgi adabiy tilning qonuniyatlarini teranroq anglash zaruriyati yuzaga keladi. Qadimgi turkiy til davri barcha turkiy urug' va qabilalarning umumiy tili sifatida VI-X asrlarni o'z ichiga oladi.

Qadimgi turkiy til kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy bog'langan. Bu davr tili haqida B.Vladimirsov quyidagi fikrlarni bayon qiladi: "...mo'g'ul tili turk va tungus tillari bilan birga o'zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo'lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo'g'ul, turk, tungus tillari ma'lum.

Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo'lib, fanda u oltoy til birligi nomi bilan yuritiladi. Bu davrda hali turkiy tillar mo'g'ul tillaridan mo'g'il tillari esa, o'z navbatida, tungus-manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi, ular bir til birligi sifatida qo'llanar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo'lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi-xususiyatlar esa hozirgi mo'g'ul, turkiy va tungus-manchjur tillarida saqlanib qolgan" [1].

Darhaqiqat, O'zbek millatining kelib chiqish jarayonidagi tub ildizlarining asosiysi turkiy qabilalardan bo'lib, uning etnik asoslari qadimgi sak, massaget, xun va turkiy urug'lar bilan bog'liq. Miloddan avvalgi davrlardan boshlab Markaziy Osiyoda yashagan bu xalqlar keyinchalik turli bosqinchiliklar va davlatlar o'zgarishi natijasida o'zaro aralashib, yangi etnik guruhlarini vujudga keltirgan. Mutaxassislarning fikricha, qadimgi davrlardan milodiy V asrgacha bo'lgan muddat "Eng qadimgi turkiy til" davri deb yuritiladi [2] va ushbu davrga tegishli bo'lgan qadimgi turkiy yozma yodgorliklarga run, uyg'ur, moniy, brahma, sug'd, suryoniy yozuvlarida bitilgan obidalar kiradi. Bunday toshlarga o'yib yozilgan bitiglar run yozuvida bo'lib, u turkiy xalqlarga xos yodgorlik sanaladi. VI asr o'rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashishi turkiy tillar, ya'ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug' va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko'p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklarning yaralishiga sabab bo'lgan.

Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Yenisey daryosining yuqori qismi va Qirg'izistondagi Talas vodiysi, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena daryosi sohillarida aniqlangan. Bu yodgorliklarni ilk tadqiq etgan olimlar sarasida, sibirlik o'lkashunos N.Yadrinsev [3], daniyalik tilshunos olim V.Tomsen [4] va rus turkologi V.Radlov [5]lar asosiy o'rin egallashadi.

Markaziy Osiyoda yashagan qarluiq, uyg'ur, kipchok, nayman va boshqa turkiy qabilalar mahalliy sasoniy, so'g'd, xorazmiy va boshqa qadimiy xalqlar bilan aralashib, o'ziga xos yangi etnik guruhni shakllantirishi, turkiy tillar oilasiga mansub o'zbek tili aniqrog'i, turkiy tillar oliy oilasining g'arbiy turkiy tillar turkumidagi qarluiq guruhiga kiruvchi o'zbek va uyg'ur tillari qadimgi qarluiq, cho'pon va uyg'ur lahjalari asosida shakllanishiga asos bo'lgan. O'zbek tili uyg'ur tili bilan juda yaqin, ammo o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi, masalan, o'zbek tilida unlilar uyg'unligi (singarmonizm) saqlanmagan. Shuningdek, o'zbek tili tarixan forsiy va arab tillarining ta'siriga uchragan, chunki O'rta Osiyo madaniyati ushbu tillar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Uyg'ur tili esa tarixan xitoy, forsiy va arab tillarining ta'siriga uchragan, shu boisdan alifbolardagi farq aytarli darajada turlicha.

Bundan anglashimiz mumkinki, Talas va Yenisey bitiglaridagi yozuv bilan O'rxun obidalaridagi yozuvlarda uchragan harflarning shakli variantlari ko'pligi va bu farq I.Kizlasovning fikricha, sakkiz xil alifbo ekanini anglatadi. Hozirgi vaqtga kelib eng qadimgi sug'd, ko'k turk (o'rxun-yenisey, turkiy run), eski uyg'ur (turk) yozuvlaridagi yodgorliklarni o'rganishga oid izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda [6], Jumladan, run bitiglari so'z boyligi bo'yicha G'.Abdurahmonov [7], H.Dadaboyev [8], Q.Sodiqov [9], A.Kubatin [10], G'.Boboyorov [11] hamda yosh olimlardan M.M.Dustmurodov [12] singari o'zbek turkologlari tomonidan izlanishlar olib borilgan.

Qadimgi turkiy til hozirgi o'zbek tilining shakllanishida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan muhim tarixiy til qatlamlaridan biri sifatida turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy hayotida osmon jismlariga alohida e'tibor qaratilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'zbekiston hududidan miloddan oldingi davrlarga va milodiy VII-VIII asrlarga oid turkiy-run yozuvidagi yodgorliklar topilishi va tahlil qilinishi natijasida, Janubiy Sibir va O'zbekiston tuprog'idan topilib, ilgari tahlil etilgan turkiy-run yozuvlari qaytadan deshifrovka qilindi [13].

Bu o'rinda IX asrga ta'luqli "Oltin yorug'" sutrasi, moniylik va buddaviylik oqimidagi yozma yodgorliklarning qadimgi turkiydan hozirgi o'zbek tiliga qilingan tabdili nashrlarini eslash kifoya [14].

Ushbu qadimgi turkiy bitigtoshlarda uchraydigan kosmonimlar va ularning qo'llanilishi o'sha davrlardagi xalqlarning kundalik hayotida kosmonimlarning ro'li ustuvor bo'lganidan darak beradi. Bu ularning astronomik qarashlari va kosmonimlarga berilgan nomlarda o'z ifodasini topgan. Mazkur maqolada qadimgi turkiy tilda shakllangan va hozirgi o'zbek adabiy tilida izchil saqlanib qolgan yoki ma'lum o'zgarishlarga uchragan kosmonimlarning leksik, fonetik va semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Qadimgi turkiy tilda kosmonimlarning shakllanishi turli omillar, jumladan, diniy e'tiqodlar, mifologik qarashlar va amaliy astronomiyaga asoslangan [15].

Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini tahlilga tortishda Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy kabi mutafakkirlarning asarlarida osmon jismlariga oid terminlar uchraydi. Bunga misol tariqasida Kul Tegin bitigtoshlar matnining boshidan joy olgan quyidagi jumalalarda ko'rish mumkin: *"зä Көк Тәңри асра яјіз йәр қиліндуқда икин ара киши ојлі қилінмйи. – Тәпада көк осмон, пастда қаро yer yaratilganda ikkisining orasida kishi (inson) bolalari yaratilgan."* Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarining I-jildini tahlil qilar ekanmiz, quyidagi atamalarni misol sifatida ko'rishimiz mumkin:

1. "булүт – bulut; қора булүт – qora bulut; ақ булүт – oq bulut; Misol uchun ushbu maqolda:

Қара булүтїғ жїл ачар,  
Урунч билä їл ачар.

Qora bulut osmonni qoplab olganda uni shamol uchiradi, shuningdek, hukumat eshigini pora ochadi. Bu maqol orqali ishni bitirish uchun pora berish kerakligiga undab aytiladi. Bulut soʻzi yana qalin sochga ham oʻxshatiladi. “булїт тāk сачї” – sochi bulutdek qalin, quyuq, koʻp. “булїт” leksemasining sheʼrda qoʻllanilishi:

Ағдї булїт кōкрäжү,  
 Жағмур толї сәкрäжү,  
 Қалїқ анї үгрїјүб  
 Қанча барїр билгүсүз.

Chaqmoqlar chaqib bulut koʻtariladi, yomgʻir va doʻl yogʻadi, shamol bulutlarni haydab, xarakatlantiradi, ular qayoqqa borishini bilib boʻlmaydi.” (I-jild, 336-337 bb).

Әмір – туман; bulut (oʻgʻuzchada); (I-jild, 88 b). булїт өрдї – bulut chiqdi, paydo boʻldi; (I-jild, 183 b). булїт өрләндї – bulut paydo boʻldi; sheʼrda shunday keladi:

Ај қопуб өвләнүб,  
 Ақ булїт өрләнүб,  
 Бір-бір үзä өклүнүб,  
 Сачлуб суwї әнрәшүр

Oy chiqib atrofini bulut doirasi (oʻtovi) oʻraganda, bulutlar bir-birining ustiga mingashib guldiros bilan suvlarin oʻtkadilar. (bu xil oyning doirasini odamlar yomgʻir yogʻishiga yoʻyadilar); (I-jild, 257-258 bb). көшкә - kichik koʻlanka; kölikä – koʻlanka, qalin soya.” (I-jild, 419 b). Qadimgi turkiy “ay” soʻzi hozirgi oʻzbek tilida deyarli oʻzgarishsiz saqlangan.

2. Kosmonimlar tarkibidagi qadimgi turkiy ildizlarni aniqlash uchun ularning etimologiyasini oʻrganish muhim ahamiyatga ega. “ачуқ көк - ochiq havo; (I-jild, 95 b). қалїқ – havo; (I-jild, 364 b). ајас көк – tiniq osmon; (I-jild, 144 b). көк чїрпїсї – osmon gardishi; (I-jild, 397 b). Тоʻq koʻk rangli narsalarni turklar “көб-көк” desalar, oʻgʻuzlar esa “көм-көк” tarzida qoʻllaydilar; (I-jild, 316-317 bb). Bu soʻz qadimgi turkiy tilda “osmon” va “moviy” maʼnolarida qoʻllanilgan. Hozirgi oʻzbek tilida ham xuddi shunday maʼnoda saqlanib qolgan. Ushbu sheʼrda osmon quyidagicha taʼriflanadi:

Јараттї јашїл јаш,  
 Саwурдї өрүң қаш,  
 Тїзілдї қараʼ куш,  
 Тўн, күн үзä јүркәнүр.

Tangri osmonni feruza rangida qilib yaratdi. Yulduzlar bilan bezadi. Urukka koʻz qoʻygandek, qosh oq uruk uchun ishlatiladigan tosh – mezon yulduzi [turkcha qora qush] unda tuzildi. Kecha bilan kunduz bir-birining ustiga qoplanadi.” (I-jild, 318-319 bb).

3. Qadimgi turkiy “күн” soʻzi bugungi kunda “quyosh” va “kun” maʼnolarida qoʻllaniladi va bu holat semantik kengayishning natijasi hisoblanadi. “күндä ирүк јок, бәгдä кїјїк јок – quyosh kulchasida darz (teshik) yoʻq boʻlganiday, bek vaʼdasida ham xilofgarchilik, qaytish yoʻq; (I-jild, 100 b). ол күндä їсїндї – u quyoshda isindi; (I-jild, 210 b). күн – kun, quyosh; күн туғдї – kun tugʻdi, quyosh chiqdi; бу күн ол көз қаматған – bu quyosh koʻzni qamashtiradi; (I-jild, 470 b). туғсуғ – sharq tomon; күн туғсуғ – kun chiqish tomon, quyosh chiqish tomon; батсїғ – gʻarb tomon; күн батсїғ – kun botish tomon, quyosh botish tomon; (I-jild, 430 b). Maqol: күңа бақса, көз қамар – kunga boqsa, koʻz qamashadi; күн – kun, kunduz; бүкүн – bugun; Kun quyoshning nuridan paydo boʻlgani uchun uni ham shu kun soʻzi bilan ataladi.” (I-jild, 327 b). Ushbu soʻzlar misoli hozirgi oʻzbek adabiy tilida qadimgi turkiy tilning fonetik oʻzgarishlari natijasida rivojlangan shakli hisoblanadi.

4. “ажун – dunyo; бу ажун – bu dunyo; ол ажун – u dunyo, oxirat (chigilchada)” (I-jild, 106 b).

5. “эсін – shamol, shabada (“esadigan” degan ma’noda)” (I-jild, 106 b).

6. “a:j – oy (o’n to’rt kunlik oy); толун aj – to’lin oy; (I-jild, 381 b). a: j – oy (30 kundan iborat bo’lgan vaqt, muddat); ushbu baytda ham kelgan:

Қишқа этін кәлә қалі қутлуғ јaj.  
Тўн, кўн, кәчә алқинур өзләк билә a:j.

Barakali yoz kelsa, qishga tayyorln, chunki kecha va kunduz o’tishi bilan oy va zamon kechadi (yoz ketib qish keladi). 30 kunlik oy muddatini ham oy deb atashga sabab shuki, oyning o’tishi osmondagi oy bilan bilinadi. Masalan: a:j толун болса, элигін имләмәс – to’la oy qo’l bilan ko’rsatilmaydi. Chunki u har kimga aniq ko’rinadi, deganda oy ana shu ma’noda qo’llanilgan. Bu maqol har bir aniq va mashhur narsaga nisbatan ishlatiladi; (I-jild, 110-111 bb). ајдін – oydin, oy yorug’ligi; (I-jild, 139 b). shoir seviklisining yuzini oyga, bo’yini sanubar shoxiga o’xshatib sifatlaydi:

Кім ајіб эшитўр қулақб  
Ај өwi өртўч бутак.

Oyning uyi ham turar yeri sanubarning shoxidir, deb kim aytgan va qaysi quloq eshitgan; (I-jild, 358 b). Ko’chmanchi va musulmon bo’lmagan turklar oylarni to’rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritdilar. Yil o’tishini shunday aniqlaganlar. Masalan: navro’z (yangi kun)dan keyingi avval bahorga “оғлақ ај” so’ngra “улуғ оғлақ ај” deb atashgan, chunki oy bu vaqtda kata bo’lib qoladi. Bundan keyingisi esa “улуғ ај” deb yuritilgan.” (I-jild, 332 b).

7. “эзи – xudo; эзиміз јарлиғи – egamiz buyrug’i; Shuningdek, yana bir qayd borki, unda эзи – xo’jayin, ega; эзим нә тәр – egam (xo’jayinim) nima deydi anglamlarida qo’llaniladi; (I-jild, 114 b). Qadimgi turkiy kosmonimlar ba’zan semantik o’zgarishlarga ham uchragan. Aynan “тәһри” so’zi qadimda “osmon” va “xudo” ma’nosida qo’llangan bo’lsa, hozirgi o’zbek tilida u faqat diniy ma’noda ishlatiladi. улуғлуқ тәһригә – ulug’lik xudoga; (I-jild, 166 b). тәһри ақһн ақһттї – tangri oqin (sel) oqizdi; (I-jild, 219 b). ол тәһригә кїрткїнсәдї – u xudoning yakkaligini iqrор qilishni istadi; (I-jild, 278 b). тәһри мәһн улуғладї – xudo meni ulug’ladi, menga ulug’likni ato qildi.” (I-jild, 297 b).

8. “өркин јағмур – kunlarcha davom etuvchi yomg’ir, bir necha kun to’xtamay yog’adigan yomg’ir.” (I-jild, 134 b).

9. Turklar o’n ikki xil hayvon ismini o’n ikki yilga ot qo’yganlar. Tug’ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Bu quyidagi tarzda keltiriladi: “сїчған јїлї – sichqon yili;

уд јїлї – sigir yili;  
барс јїлї – bars yili;  
тауїшған јїлї – quyon yili;  
нәк јїлї – timsoh yili;  
јїлан јїлї – ilon yili;  
јунд јїлї – ot yili;  
қој јїлї – qo’y yili;  
бїјїн јїлї – maymun yili;  
тақағу јїлї – tovuq yili;  
їт јїлї – it yili;  
тоңуз јїлї – to’ng’iz yili.” (I-jild, 330-331 bb).

10. “бақір соқум – Mirrix (Mars) planetasining nomi, u qizillikda misga o’xshatiladi; (I-jild, 342 b). бақір соқім - Mirrix (Mars) yulduzining nomi.” (I-jild, 378 b).



Qadimgi turkiy til hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishida muhim ro'l o'ynagan. Ayniqsa, kosmonimlar misolida bu ta'sir yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'plab qadimgi turkiy atamalar hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlanib qolgan yoki fonetik, morfologik va semantik o'zgarishlarga uchragan holda foydalanilmoqda. Bu esa qadimgi turkiy madaniy merosning o'zbek tilidagi izchil davomiyligini tasdiqlaydi.

Xulasa qilib shuni aytish mumkinki,

1. Qadimgi turkiy til tilshunoslikning bir sohasi sifatida O'zbekistonda o'tgan asrning 80-yillaridagina vujudga keldi. Bundan ko'rinib turibdiki, tilshunoslikda qadimgi turkiy tillarni ilmiy-tahlili izlanishlar orqali o'rganish dolzarb masalaligicha qolmoqda. Qadimgi turkiy til sohasiga kelajak avlodni jalb qilish va o'rgatishda peshqadamlik qilgan o'zbek akademiklari G'anijon Abdurahmonov va Alibek Rustamovlarning ilmiy izlanishlarini va amaliy tajribalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Zero, o'tgan yillar davomida umum turkologiya qadimgi turkiy yodgorliklar sohasida yangi yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsada, yangi yozuv yodgorliklari topilishi bu sohaning hali yetarli darajada o'rganilmaganligini ko'rsatadi.

2. Qadimgi turkiy til turkiy xalqlarning ajdodlari tomonidan ishlatilgan umumiy til bo'lib, uning ilk yozma yodgorliklari VI–VIII asrlarga oid Orxon-Yenisey bitiklarida aks etgan. Bu til hozirgi turkiy tillarning, jumladan, o'zbek tilining ham ildizidir. Qadimgi turkiy til grammatikasi va fonetikasi jihatidan hozirgi turkiy tillardan farqlansa-da, ularning rivojlanishida muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

3. Turkiy (o'zbek) xalqining etnogenezi uzoq tarixiy jarayonning natijasi bo'lib, u ko'plab qadimgi etnoslarning, jumladan, saklar, massagetlar, xunlar, kidaritlar, eftalitlar, turkiy qabilalar (turkut, uyg'ur, qarluqlar va boshqalar)ning aralashuvi va birlashuvi natijasida shakllangan. O'rta Osiyo hududida joylashgan bu qabilalar madaniy va lingvistik jihatdan o'zaro ta'sir qilgan holda o'zbek xalqining shakllanishiga asos solgan. XIII asrda mo'g'ullar istilosi, keyinchalik esa temuriylar va shayboniylar davrida turkiy qavmlarning yana birlashuvi sodir bo'lib, bu jarayon o'zbek xalqining shakllanishini yanada mustahkamladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

4. Qadimgi turkiy til o'zbek tilining asosini tashkil etgan bo'lsa, o'zbek xalqining etnogenezi turli qabila va xalqlarning uzoq tarixiy jarayondagi aralashuvi natijasida shakllangan murakkab jarayondir. O'zbek millati va tilining shakllanish tarixi uzoq va murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda turli etnik, madaniy va siyosiy omillar muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda o'zbek millati o'zining boy tarixi va madaniyati bilan faxrlanadi, o'zbek tili esa mustaqil davlat tili sifatida rivojlanishda davom etmoqda. Shu bois, o'zbek millati va tilining tarixini o'rganish nafaqat ilmiy, balki milliy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

**IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES.**

1. Владимирцов Б. Работы по монгольскому языкознанию. - М.: Восточная литература. 2005. – С. 237.;
2. Содиков К. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. –Тошкент. 2006. -Б. 3.;
3. Ядринцев Н.Сибирские инородцыб их быт и современное положение. – СПб.:1891.;
4. Thomsen V. Inscription de l'Orkhon dechifress, MSFOU, V, 1896. – 286 p.;
5. Радлов В. Опыт словаря тюркских наречий. – Том III, 1. – СПб.: Типография императорского АН, 1893. – 1260 с.;
6. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning s hakllanishi va tiklanishi. T.: 2006.;
7. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 166 б.;
8. Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. – Т.: Фан, 1990. – 213 с.;
9. Содиков Қ. Илк ўрта асрларда яратилган туркий хужжатлар. – Т.: 2016.;
10. Кубатин А. К вопросу о генезисе древнетюркских титулов // О‘zbekiston tarixi, №4, – 2010. С. 61-73.;
11. Бобоёров Ф., Ғойибов Б., Кубатин А. Ўрта Осиё битиклари. – Т.: Tafakkur, 2020. – Б. 24-58.; Бобоёров. Ф. Ўзбек тили тарихи (энг эски чоғлари). Т. – Фан. 2022. – 176 б.;
12. Dustmurodov M. О‘rxun-Yenisey bitigtoshlaridagi harbiy terminlar tadqiqi.- Т.: Dimal nashriyoti. 2025. – 176 b.;
13. Рахметов Н. Некоторые суждения о тюркской рунологии. - Ж-л. “Туркология”. Казахстан. 2004/1.;
14. Nasimxon Rahmon. Oltun yorug‘. So‘z boshi, izohlar va qadimgi turkiydan o‘zbekchaga tabdil. - Т.: Fan. 2009.;
15. Ibragimova D.A. Ingliz, rus va o‘zbek tillarida kosmonimlarning chog‘ishtirma tahlili.- GlobeEdit: 2023. – 64b.;